

[illegible]

**2023 YIL
"INSONGA E'TIBOR
VA SIFATLI TA'LIM"
YILI**



**SIFATLI TA'LIM -
IQTISODIY TARAQQIYOT
POYDEVORI**



Metodik tavsiyanoma

Andijon - 2023

*Ta'lim sifatini oshirish – Yangi
O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu
yagona to'g'ri yo'li.*

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Zamonaviy hayotni bugun ilm-fan va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida beliglanishi ham bejiz emas. negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati dunyo ahli tomonidan e'tirof etilgan. Yoshlarimiz sog'lom hamda farovon turmush kechirishi, egallagan kasbi bo'yicha ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatni kamsitilishga yo'l qo'ymaslik, komillikka erishish uchun sifatli ta'lim olish eng asosiy shartidir.

Bugungi kunda "sifat" va "ta'lim" tushunchalarining quyidagi maqbul kombinatsiyalarini keltirib o'tamiz:

1. Ta'lim sifati - bu inson, jamiyat, davlatning muayyan ehtiyojlarini qondirishi kerak bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayoni xususiyatlarining yig'indisi.

2. Ta'lim sifati - kadrlar tayyorlash, ta'lim berish, o'qitish, bilimlarni uzatish, yangi formatdagi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish, pedagogik kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi muassasa va tashkilotlarni birlashtiruvchi maqsad hamda natijalar yig'indisi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustuvor jihatlarini ular ongiga singdirish, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z vataniga fidoyi shaxs etib tarbiyalashga e'tibor berish zarur. Kundan-kun odimlab borayotgan vatanimizda yoshlar sidqidildan, bilimli, salohiyatli bo'lib taraqqiyotning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. Shaxsni barkamollikka yetaklovchi kuch bu - ma'rifatdir. Inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar sahiylik, sabrlilik, kamtarlik, hamjihatlik insonning oliy ko'rki hamda ruhiy tayanchdir.

O'zbekistonda 1997-yildan boshlab har bir yilga shu davr ichida taraqqiyotning muhim yo'nalishlarini ifoda etadigan nom berish an'anaga aylangan. 1997-2022 yillar oralig'ida yillarga quyidagicha nom berilgan:

- 2022 yil — Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili
- 2021 yil — Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili
- 2020 yil — Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili
- 2019 yil — Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili
- 2018 yil — Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili
- 2017 yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili
- 2016 yil — Sog'lom ona va bola yili
- 2015 yil — Keksalarni e'zozlash yili
- 2014 yil — Sog'lom bola yili
- 2013 yil — Obod turmush yili
- 2012 yil — Mustahkam oila yili
- 2011 yil — Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili
- 2010 yil — Barkamol avlod yili
- 2009 yil — Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili
- 2008 yil — Yoshlar yili
- 2007 yil — Ijtimoiy himoya yili
- 2006 yil — Homiylar va shifokorlar yili
- 2005 yil — Sihat-salomatlik yili
- 2004 yil — Mehr va muruvvat yili
- 2003 yil — Obod mahalla yili
- 2002 yil — Qariyalarni qadrlash yili
- 2001 yil — Onalar va bolalar yili
- 2000 yil — Sog'lom avlod yili
- 1999 yil — Ayollar yili
- 1998 yil — Oila yili
- 1997 yil — Inson manfaatlari yili

Yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo'lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Yurtboshimiz tomonidan 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilinishi bejiz emas.



"Nima uchun yilga bunday nom berayapmiz? Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz".

Sh.Mirziyoyev

Ma'lumki, ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi jamiyatning kelajagini belgilaydi. Bu borada mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani quvanarli holdir.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti inson shaxsining yuksalishi uchun muhim bo'lgan omillarni yangilashni taqozo etadi.

SIFATLI TA'LIM - IQTISODIY TARAQQIYOT POYDEVORI

Bugun yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati safida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda.

"Ta'lim dunyoni o'zgartirmaydi, balki dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lgan odamlarni o'zgartiradi"

Paulo Freire.

Ta'limsiz kelajak yo'q, hamma uchun yaxshiroq, barqaror, qo'llab-quvvatlovchi va adolatli dunyo umidi, bu ularning olgan bilimlariga bog'liq hozirda yashaydigan odamlar. Bugunning bolalari ertangi kunning

yetakchilari bo'lishadi va xatolarni o'rnini bosish uchun ulardan saboq olishdan yaxshiroq yo'l yo'q.

Ko'p odamlar uchun ta'lim bolalar masalasidir. Bilim tug'ma emas, hech kim bilib tug'ilmaydi. Shu sababli, bolalar ta'limi ularning o'qitilishi uchun mas'ul bo'lgan odamlarning ma'lumotlariga bog'liq va bu juda ko'p noma'lum narsalarni takomillashtirish, o'rganish va kashf etishni to'xtatmaslik uchun jiddiy sababdir. Chunki siz ham yaxshi ota yoki ona bo'lishni o'rganasiz.

Siz hech qachon yangi narsalarni o‘rganish uchun juda katta emassiz. Yaxshilash, ta’lim va shaxsiy o‘shishga vaqt, kuch va mablag‘ sarflash hech qachon kech emas. Ammo bu sarmoyaga o‘zingiz munosib ekanligingizni qabul qilish ham juda muhim, chunki siz ko‘p marta boshqalar haqida shunchalik o‘ylaysizki, o‘zingizga g‘amxo‘rlik qilishni unutasiz. Yangi narsalarni o‘rganish sizga professional yo‘lingizda, shuningdek ichki yo‘lingizda, bilimlaringiz va shaxsiy rivojlanishingizda yordam beradi.

Ta'lim - bu bilimlarni insonga yetkazish, shu bilan intellektual, ta'sirchan va axloqiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Ya'ni, bu faqat didaktik bilimlarni o'rganish bilan bog'liq emas, bu turli xil ishlarni ko'p yoki ozroq mahorat bilan bajarishga imkon beradi. Ta'lim qadriyatlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bizni jamiyatda, hamdardlik, birdamlik va boshqa tirik mavjudotlarga hurmat bilan yashashga imkon beradi. Va bularning barchasi siz hayotingiz davomida rivojlanib borishi mumkin, chunki bilim olish uzoq masofali martaba. Ta'limni hayot loyihasi deb hisoblash kerak, chunki har doim, har qanday vaqtda, siz yangi narsalarni o'rgatishingiz va o'rganishingiz mumkin. **Malaka**

o'rganishingiz mumkin. **Malaka oshirish sizga o'zingizni yangilashga imkon beradi**, bilimlaringizni qayta ishleng va o'zingizni har doimgidek bo'lmaydigan baxtni berishi mumkin bo'lgan sohada professional rivojlanish uchun tayyorlang.

Ta'lim sohasida imkoniyatlar cheksizdir. Bu sizning barcha

kuchlaringizni bitta nuqtaga yo‘naltirish yoki qobiliyatlaringizni cheklash haqida emas. Bir nechta narsani bilish haqida emas, chunki ko‘pchilikdan o‘rganish sizning ongingizni ham rivojlantiradi.



Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Shavkat Mirziyoyev

Keyingi yillarda yurtimizda maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrovi darajasi 9 foizdan 38 foizgacha oshdi. Prezidentimiz bu ko'rsatkichlarni yanada ko'paytirish bilan birga ta'lim sifatini oshirishga e'tibor berish kerakligini alohida ta'kidladilar.

“Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz”,- deya ta'kidladilar davlatimiz rahbari.

Kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm ajratilayotgani ham yoshlarning bilim olishiga sharoit yaratish yo'lidagi g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Insonning imkoniyatlari ko'p jihatdan uning ta'lim darajasiga bog'liq. Jamiyatda intellektual salohiyati yuqori bo'lgan insonlar ulushining ortishi iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini oshirish, kelajak avlod daromadlarining kamayishi xavfini qisqartirish imkonini beradi.

KUTUBXONACHIGA

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa

sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Bugun tobora kuchayib borayotgan talablarga javob berish maqsadida harakat qilish zarurl. Oldinga, yangilanish sari bir necha qadam qo'yish uchun esa xalqimiz asrlar davomida to'plagan bebaho tajriba, ya'ni kadrlar tayyorlash bo'yicha hamda ilmiy-ta'limiy sohada erishilgan yutuqlar, uslubiy, tuzilmaviy, moddiy va nihoyat, innovatsion rivojlanish tajribasini hisobga olish hamda undan foydalanish lozim.

Aynan kutubxona mutaxassislari ushbu yilda nimalarga ko'proq ahamiyat berishimiz darkor. Yoshlarni sifatli ta'lim olishida kutubxonalarning o'rni qay darajada?

AKMning ma'naviy-ma'rifiy rejasi asosida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi viloyat bo'limlari, viloyatdagi mavjud oilaviy poliklinikalar, madaniyat va sport ishlari, oliygohlar, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni jadallashtirish bo'yicha ma'naviy-madaniy, ommaviy tadbirlar, xar bir tadbirga atab mavzuli kitob ko'rgazmalari tashkil qilinmoqda. AKM jamg'armasidagi mavjud axborot-resurslarini keng targ'ib qilish, aholi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va ajdodlarimiz adabiy me'rosini keng targ'ibot ishlari olib borish zarur.

Jamiyatning ma'naviy hayotini boshqarish oldiga qo'yilgan maqsad esa ilm-ma'rifatni, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, yuksak darajadagi pok va ahloqli kishini tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashning o'zi ham muhim ta'limiy jarayon bo'lishi bilan birga u ushbu jarayonni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishda pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Shu sababli eng avvalo, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirilgan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil eta biladigan, uning yuksak mahorat bilan boshqarilishini ta'minlay oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash ijtimoiy, qolaversa, ta'limiy islohotlarning samarali kechishi, O'zbekistonning barcha sohalarda jahonning yetakchi davlatlari bilan tenglasha olishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir: «Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, „Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi“. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur».

Sh.Mirziyoyev

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qo'llay oladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini tadbqiq qila oladigan o'qituvchilar kerak.

Sizlarga bermoqchi bo'lgan tavsiyamiz aynan turli soha mutaxassisarlari hamda o'qituvchilar uchun bo'lib, ta'lim sifatini oshirishda albatta yangiliklar bilan muntazam tanishib borishda ko'rsatiladigan axborot xizmati tavsiya etiladi.

TAVSIYA:



“Foydalanuvchilarga axborot-bibliografik xizmat ko'rsatish”

Mutahassislarga axborot-bibliografik xizmat ko'rsatishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ilmiy va ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan yangi nashrlar haqida kitobxonlarga axborot berishdir. Axborot-bibliografik xizmat ko'rsatishda kitobxonlarimiz abonentlar deb yuritiladi. Amaliyotda bu xizmat turining ikki xil shakli mavjud - tabaqalashgan va tabaqalashmagan holda xizmat ko'rsatish.

Tabaqalashgan xizmat ko'rsatish turlari

Axborotni tanlab tarqatish (ATT)	-	yakka va guruhli tartibda mutaxassislar bilan ishlash
Rahbarlarga tabaqalashtirilgan	-	xizmat ko'rsatish (RTXK)

Axborot-bibliografik xizmat ko'rsatishning tabaqalashmagan shakliga - ommaviy axborot-bibliografik xizmat ko'rsatish kiradi :

- ❖ yangi kitoblar ko'rgazmasini tashkil qilish;
- ❖ yangi nashrlarning axborot ro'yxatlari, byulletenlarini tuzish;
- ❖ yangi adabiyotlar sharhini o'tkazish;
- ❖ axborot-kutubxona muassasasining web sayti orqali kitob fondiga olingan yangi adabiyotlar haqida ma'lumot berish;
- ❖ bibliograflar tomonidan tuzilgan bibliografik qo'llanmalar haqida axborot berish

Abonentlar bilan ishlash

Ayrim kitobxonlarga yakka tartibda axborot berish muayyan mavzularda og'zaki (shaxsan, telefon, telegramm orqali) xabar qilish, shuningdek, axborotni tanlab tarqatish (ATT)ning elementlarini qo'llash orqali yozma axborot berish amalga oshiriladi. Guruhli va yakka tartibdagi axborot abonentlarining soni axborot-kutubxona muassasasining imkoniyatlari va mutaxassislarning mazkur formada xizmat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojlariga qarab belgilanadi. Axborot abonentlari doirasini tayyorlash va shakllantirish, mavzuni tanlash, axborot manbalari, adabiyotlarning turlari va nashrlarning xillari, yetkazish usullari (og'zaki, yozma, telegramm mesenjeri, elektron pochta, yoki yozma xabar qilish) ni kelishib olish lozim bo'ladi.

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak.

Sh.Mirziyoyev

Axborot kunlari

Mutaxassislarni ilmiy, ishlab chiqarish, boshqaruv faoliyati uchun kerakli adabiyotlar bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi.

Axborot kuni dasturiga yangi nashrlarning ko'rgazmasi, bo'lim yoki ayrim mavzularga oid adabiyotlar sharhi, yangi bibliografik qo'llanmalar, yangi adabiyotlarni qanday kuzatib borish, masofadan turli kutubxonalar xizmatidan foydalangan holda adabiyotlar olish haqidagi suhbatlar kiradi.

Axborot kunlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari :

- Muntazamlilik.
- Mutaxassislarni sohasiga oid eng yangi nashrlar bilan tanishtirib borishga intilish.

Axborot kunlari universal va mavzuli bo'lishi mumkin.

Universal mazmundagi axborot kunlarida kutubxonaga ma'lum bir muddat davomida olingan bosma, vidyeo, audio nashrlar bilan tanishtiriladi.

Mavzuli axborot kunlari "Abiturientlar sizlar uchun", "Biznesdagi muvaffaqiyat sirlari kitoblarda", "Davlat mukofoti sohiblari", "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi" va boshqa mavzularni o'z ichiga oladi.

Bunday axborot kunlarining o'tkazilishi kutubxonaga yangi olinayotgan adabiyotlar miqdori bilan bog'liqdir.

Mutaxassis kunlari

Mutaxassislarni kutubxona kitob fondiga olingan sohaga oid yangi adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib borilishidir. An'anaviy va elektron texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda o'tkaziladigan kompleks axborot - bibliografik tadbir davomida foydalanuvchilarga adabiyotlar, bibliografik sharhlar, mutaxassislarning ma'ruzalari, ilmiy-ishlab chiqarish filmlari tavsiya etiladi.

Mutaxassislar kunining asosiy maqsadi – muayyan guruhdagi mutaxassislar ya'ni o'qituvchilar uchun ham kundalik va retrospektiv manbalar axborotini taqdim etish, fan va texnika yangiliklari, ilg'or tajriba, yutuqlar targ'ibotini tashkil etishdan iborat. Shuningdek bu tadbir Yangi olingan adabiyotlar yoki internet oqimida mutaxassislar uchun yangi joylangan axborotlar bilan tanishtirish hamda soha mutaxassislari o'rtasida

kasbiy muloqot va tajriba almashish doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan mutaxassis kunining samaradorligini tahlili:

- ❖ Ishtirok etgan korxona va muassasalar soni
- ❖ Qamrab olingan mutaxassislar soni
- ❖ Tavsiya etilgan adabiyotlar soni, nashrlarning turlari ;
- ❖ Mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqilgan nashrlar ;
- ❖ Kitob berilishi soni ;
- ❖ Anketalarni tahlili

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komilova, Fotima. Ta'lim tizimini boshqarish [matn] : o'quv qo'llanma / F.Komilova ; muharrir X.Taxirov. - Toshkent : Ishonchli hamkor, 2021. - 140 b.

2. Xusanov, B. Yoshlarda ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash masalalari / Baxtiyor Xusanov // Xalq ta'limi. - 2022. - № 5. - B. 12-15.

3. Ta'limning asosiy vazifasi - ilmiy salohiyatdan foydalanib ta'lim iste'molchilarining ehtiyojlarini qondirish // Xalq ta'limi. - 2022. - № 3. - B. 4-5.

4. O'zbekistonda tahlim sohasining bugungi holati tahlil qilindi [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://daryo.uz/k/2022/12/30/ozbekistonda-ta'lim-sohasining-bugungi-holati-tahlil-qilindi>

5. Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori [elektron resurs] // Kirish tartibi : https://uza.uz/uz/posts/sifatli-talim-taraqqiyot-poydevori_438715

*Tuzuvchi: IMX yetakchi mutaxassis
Z.Xalbekova*